

# 2018 yil yanvar-fevral oylarida Surxondaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi

2018


## RAQAMLAR

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **40,5 foizga** ko'paydi.
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati - **103,6 foiz**.
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **30,5 foiz**.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2018 yilning yanvar-fevral oylarida viloyat korxonalari tomonidan 427,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bolib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 140,5 foizni tashkil qildi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) sanoatda - 150,2 foizga (jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishiga qo'shgan hissasi 84,9 punkt), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning – 115,0 foizga (o'sishiga qo'shgan hissasi 9,6 punkt), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatning – 339,2 foizga (o'sishiga qo'shgan hissasi 0,9 punkt) o'sishi kuzatildi.

## 2018 yil yanvar-fevral oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



- tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- qayta ishlash sanoati
- elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

### **Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni izlash.**

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni izlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 40,9 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 115,0 foizni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'yicha toshko'mir va qo'ng'ir ko'mir (lignit) qazib olish hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 1,6 martaga, *tog'-kon sanoati va ochiq konlarni izlash* sanoatining boshqa tarmoqlari 118,0 foizga oshganligini, xom neft va tabiiy gaz qazib olish 94,2 foizga kamayganligini kuzatish mumkin.

### ***Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).***

2018 yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 362,5 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 150,2 foizni tashkil etdi.

O'z navbatida, sanoatning mazkur tarmog'ida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 107,2 foizga, tekstil mahsulotlari chiqarish hajmi 3,8 martaga oshganligini va kiyim-kechak, yaxna ichimliklar ishlab chiqarish hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayganligini kuzatish mumkin.

### ***Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash***

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 19,6 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan (76,7 foiz) asayganligi kuzatildi.

### ***Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish***


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi qariyb 4,0 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 339,2 foizni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash – 2,4 martaga, chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bajarilganligi 37,9 martaga ko'payganligi kuzatildi.

### ***Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish***

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 130,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 3,6 foizga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 30,5 foizni tashkil etdi.

### **2018 yilning yanvar-fevral oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**




# 2018 yil yanvar-fevral oylarida Surxondaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi

2018

2017 yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 23,7 %dan 2018 yilning yanvar-fevral oylarida 26,6 %ga oshishi kuzatildi.


## Yanvar-fevral oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da



## Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Jarqo'rg'on tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 19,9 % ulushini), Denov (16,3 %), Sho'rchi (12,1 %) tumanlari va Termiz shahri (11,2 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

## 2018 yilning yanvar-fevral oylarida hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



# 2018 yil yanvar-fevral oylarida Surxondaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi

2018


## Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 100,5 foizga bajarildi. O'z navbatida, kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 34,4 foizni tashkil etmoqda.

## Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.

Bugungi kunda viloyatda qariyb 1754 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 365 tasi Termiz shahrida, 193 tasi Denov, 138 tasi Termiz, 136 tasi Jarqo'rg'on, 119 tasi Qumqo'rg'on, 116 tasi Uzun, 120 tasi Boysun, 116 tasi Sariosiyo, 107 tasi Sho'rchi, 99 tasi Sherobod, 67 tasi Angor, 61 tasi Oltinsoy, 60 tasi Muzrabot, 57 tasi Qiziriq tumanarida joylashgan.

### 2018 yil 1 mart holatiga ro'yxatga olingan va faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik



Joriy yilning yanvar-fevral oylari davomida viloyatda 99 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 14,1 % Termiz shahri, 12,1 % Sho'rchi, 11,1 % Qiziriq, 10,1 % Denov va 10,1 % Sariosiyo tumanlariga to'g'ri keladi.

Surxondaryo viloyati  
statistika boshqarmasining  
Sanoat statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: Z.Turanazarov

Aloqa telefoni: (0376) 223-07-24